

**YOSHLAR ORASIDA GENDER TENGLIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Alimuxammadova Gulsevar Xaydar Qizi

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlar orasida gender tenglik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari, uning mazmuni, maqsad va vazifalari, ta'lim jarayonidagi o'rni hamda samarali pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Gender tenglik faqat ayollar va erkaklar uchun teng huquq yaratish masalasi emas, balki yoshlarning inson qadr-qimmatini, o'zaro hurmat, adolat, mas'uliyat va hamkorlik tamoyillarini anglashiga xizmat qiladigan tarbiyaviy jarayon sifatida qaraladi. Maqolada oilaning, ta'lim muassasasining, pedagogning va tengdoshlar muhitining yoshlar qarashlariga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, dars va tarbiyaviy mashg'ulotlarda stereotiplarni kamaytirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, dialogik va hamkorlikka asoslangan metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. O'zbekistonda gender masalalarini o'qituvchi tayyorlash tizimiga integratsiya qilish bo'yicha mavjud muammolar ham tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar

gender tenglik, gender madaniyati, yoshlar tarbiyasi, pedagogik yondashuv, gender stereotipi, ta'lim, tarbiya, ijtimoiy hamkorlik, teng imkoniyat, inklyuziv muhit.

Аннотация

В статье рассматриваются педагогические основы формирования культуры гендерного равенства среди молодежи, ее цели, содержание и значение в образовательном процессе. Гендерное равенство рассматривается не только как обеспечение равных прав женщин и мужчин, но и как важная составляющая воспитания уважения к человеческому достоинству, справедливости, ответственности и сотрудничеству. Анализируется влияние семьи, образовательной среды, педагога и сверстников на формирование гендерных представлений молодежи. Особое внимание уделяется педагогическим методам, направленным на снижение стереотипов, развитие критического мышления, диалога и совместной деятельности. На основе

современных подходов предлагаются практические рекомендации по формированию гендерно чувствительной образовательной среды.

Ключевые слова

гендерное равенство, гендерная культура, молодежь, педагогический подход, гендерные стереотипы, образование, воспитание, равные возможности, инклюзивная среда.

Abstract

This article examines the pedagogical foundations of developing a culture of gender equality among young people. Gender equality is considered not only as equal rights and opportunities for women and men, but also as an important educational value connected with human dignity, respect, fairness, responsibility and cooperation. The article analyzes the influence of family, educational institutions, teachers and peer groups on young people's gender perceptions. Particular attention is given to pedagogical approaches that help reduce stereotypes, develop critical thinking, dialogue and collaborative learning. The paper also discusses current challenges in integrating gender perspectives into teacher education and offers practical recommendations for creating a gender-responsive educational environment.

Keywords

gender equality, gender culture, youth, pedagogy, gender stereotypes, education, upbringing, equal opportunities, inclusive environment, gender-responsive education.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ta'limning o'рни tobora ortib bormoqda, yoshlar jamiyatdagi mavjud qarashlarni qabul qilish bilan birga, ularni qayta ko'rib chiqish va yangi ijtimoiy munosabatlarni yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan faol qatlam hisoblanadi. Shu sababli ta'lim muhitida tenglik, adolat, hurmat va hamkorlik qadriyatlarini shakllantirish pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Gender tenglik madaniyati deganda qizlar va o'g'il bolalarning, ayollar va erkaklarning inson sifatidagi qadr-qimmatini bir xil e'tirof etish, ularning ta'lim olish, o'z fikrini bildirish, kasb tanlash va jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatlariga hurmat bilan qarash tushuniladi. Bu tushuncha jinslar o'rtasidagi farqlarni inkor etmaydi; aksincha, farqlardan qat'i nazar, shaxsning huquq va imkoniyatlarini cheklamaslikni nazarda tutadi. UNESCO gender tenglikni ta'limning mazmuni, o'qitish usullari, ta'lim muhiti, natijalar va kelajakdagi hayot hamda mehnat imkoniyatlari bilan bog'liq holda ko'radi. 2026–

2029-yillarga mo'ljallangan yangi strategiyada ta'lim orqali tengsiz ijtimoiy me'yorlar, stereotiplar va kamsituvchi amaliyotlarni o'zgartirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Maqolaning asosiy maqsadi yoshlar orasida gender tenglik madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan samarali yondashuvlarni tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqotda pedagogik kuzatish, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Gender tenglik masalasiga ta'lim, tarbiya, ijtimoiylashuv va shaxs rivoji nuqtayi nazaridan yondashildi. UNESCOning gender va ta'limga oid materiallari, o'qituvchi tayyorlash bo'yicha tavsiyalari hamda O'zbekistonda gender masalalarini pedagogik ta'limga integratsiya qilish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar nazariy asos sifatida olindi. Gender tenglik madaniyati shaxsning o'z xatti-harakatlari va qarashlarini ijtimoiy stereotiplar asosida emas, balki inson qadr-qimmat, huquq, mas'uliyat va o'zaro hurmat mezonlari asosida baholash qobiliyatini anglatadi. Bunday madaniyat birdaniga shakllanmaydi, u oiladagi munosabatlar, maktab va oliy ta'limdagi muhit, ommaviy axborot vositalari, internet, do'stlar guruhi va shaxsiy tajriba ta'sirida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan gender tenglik madaniyatining bir necha tarkibiy qismini ajratish mumkin:

1. bilim komponenti, yoshlar gender, tenglik, kamsitish, stereotip va huquq kabi tushunchalarning mazmunini bilishi kerak.
2. qadriyat komponenti bo'lib, bunda insonni jinsi, ijtimoiy mavqei yoki boshqa belgilaridan qat'i nazar hurmat qilishga tayyorlik shakllanadi.
3. xulq-atvor komponentidir. Bilim va qadriyat kundalik muomala, jamoaviy ish, bahs-munozara va qaror qabul qilish jarayonida amaliy xatti-harakatga aylangandagina madaniyat barqaror tus oladi.

Demak, gender tenglik tarbiyasi faqat alohida mavzuga bag'ishlangan bir necha dars bilan cheklanmasligi lozim bo'lib ta'limning umumiy muhitiga singdirilgan tarbiyaviy tamoyil bo'lishi kerak. Gender stereotiplari jamiyatda uzoq vaqt davomida shakllangan va "qizlar bunday bo'lishi kerak", "o'g'il bolalar bunday ishni qilmaydi" kabi umumlashtirilgan qarashlarda namoyon bo'ladi. Bunday qarashlar ba'zan oddiy odat sifatida qabul qilinadi, biroq ular yoshlarning qobiliyatini erkin namoyon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, o'qituvchining ongli yoki ongsiz gender tasavvurlari o'quvchilarga beriladigan e'tibor, rag'bat va ta'limiy imkoniyatlarga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun pedagogning shaxsiy pozitsiyasi ham ta'lim natijasining muhim omilidir. Masalan, matematika yoki texnika fanlari "o'g'il bolalarga mos", gumanitar yo'nalishlar esa "qizlarga mos" degan fikrlar o'quvchining kasbiy

tanloviga bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Stereotiplarni kamaytirish uchun yoshlarni tayyor fikrni takrorlashga emas, balki uning manbasi va oqibatlarini tahlil qilishga o'rgatish zarur. "Bu qarash qayerdan paydo bo'lgan?", "U hamma holatga mos keladimi?", "Bunday fikr kimning imkoniyatini cheklashi mumkin?" kabi savollar tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Gender tenglikni shakllantirishning asosiy pedagogik shartlari bor bo'lib:

Birinchi shart – pedagogning genderga nisbatan xolis va hurmatli munosabatidir. O'qituvchi o'quvchilarni jinsiga qarab emas, ularning qobiliyati, faolligi va individual ehtiyojlariga ko'ra qo'llab-quvvatlashi kerak. Savol-javob, guruhli ish va jamoaviy topshiriqlarda qizlar ham, o'g'il bolalar ham teng ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Ikkinchi shart – o'quv materiallarining mazmunidir. Darslik, misol, topshiriq va illyustratsiyalarda ayollar va erkaklarning turli kasb va ijtimoiy rollardagi faoliyatini ko'rsatish yoshlarning kasbiy tasavvurini kengaytiradi. UNESCO gender-responsive ta'limda o'quv dasturi va dars dizaynida stereotiplarning salbiy ta'sirini kamaytirishga e'tibor qaratishni tavsiya qiladi [4].

Uchinchi shart – xavfsiz va hurmatli ta'lim muhitidir. Mazax qilish, haqorat, kamsituvchi hazil yoki jinsga oid stereotiplarni mustahkamlovchi iboralar "oddiy hazil" sifatida qoldirilmasligi kerak. Pedagog bunday vaziyatlarda vaziyatni keskinlashtirmasdan, uning noto'g'ri ekanini tushuntirib, muloqot madaniyatini shakllantirishi lozim.

To'rtinchi shart – oila va ta'lim muassasasi hamkorligidir. Yoshlarning qarashlari faqat darsda emas, oilada ham shakllanadi. Shu sababli ota-onalar bilan suhbatlar, seminarlar va tarbiyaviy uchrashuvlarda teng hurmat, mas'uliyatni bo'lishish va farzandning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash masalalariga e'tibor berish maqsadga muvofiq.

Gender tenglik madaniyatini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish yuqori samara beradi. Jumladan, "aqliy hujum", munozara, keys-stadi, rolli o'yin, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va loyiha metodi yoshlarni faol fikrlashga undaydi. Masalan, pedagog "Kasb tanlashda jins muhimmi?" mavzusida munozara tashkil qilishi mumkin. Talabalar ikki yoki undan ortiq nuqtayi nazarni tahlil qilib, dalillar keltiradi. O'qituvchi esa bahsni "kim haq?" tarzida emas, balki dalilning kuchi, inson huquqi va real hayotiy vaziyatlar nuqtayi nazaridan boshqaradi. Keys-stadi metodida esa yoshlar kundalik hayotdagi vaziyatlarni tahlil qiladi. Masalan, guruhdagi bir qiz texnika bilan bog'liq loyihaga rahbarlik qilmoqchi, lekin ayrim tengdoshlari "bu ish qizlar uchun emas" deb fikr bildiradi. Talabalar vaziyatdagi muammoni, stereotipni,

uning oqibatini va pedagogik yechimlarni aniqlaydilar. Rolli o'yinlar ham samarali. Unda o'quvchilar turli ijtimoiy rollarni bajarib, boshqa insonning nuqtayi nazarini tushunishga harakat qiladi. Bu empatiya, muloqot va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiradi. UNESCO tadqiqotlari genderga sezgir pedagogika faqat nazariy bilim bilan cheklanmasligi, balki o'qituvchining kundalik amaliyoti, muloqoti va sinf boshqaruvida ham namoyon bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. O'zbekistonda gender tenglik masalasining pedagogik jihatdan dolzarbligi o'qituvchi tayyorlash tizimida ham ko'zga tashlanmoqda. UNESCO tomonidan 2025-yilda O'zbekiston pedagogik ta'limi bo'yicha o'tkazilgan tahlilda gender masalalariga oid tayyorgarlik yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi qayd etilgan. Mazkur tahlilda so'rovda qatnashgan pedagog-o'qituvchilarning 86 foizdan ortig'i gender masalalari bo'yicha rasmiy tayyorgarlik olmaganini bildirgan, pedagogika universitetlari talabalarining esa 4,8 foizi genderga oid kurslarda qatnashganini ko'rsatgan, bu u ma'lumotlar muammoni faqat yoshlar tarbiyasi bilan cheklab qo'ymaslik kerakligini ko'rsatadi. Avvalo, bo'lajak pedagogning o'zi gender madaniyati, stereotiplarni aniqlash, genderga sezgir muloqot va inklyuziv pedagogika bo'yicha zarur kompetensiyaga ega bo'lishi lozim. Shu jihatdan pedagogika oliygohlarida gender va ta'lim masalalariga bag'ishlangan mavzularni pedagogika, psixologiya, tarbiya nazariyasi, metodika va amaliyot fanlari bilan uzviy bog'lash maqsadga muvofiq. Bunda alohida fan joriy etish bilan birga, gender masalalarini mavjud fanlarning mazmuniga integratsiya qilish ham samarali bo'lishi mumkin. Yana bir imkoniyat – talabalarning amaliy loyihalaridir. Masalan, "Talabalar orasida gender stereotiplari", "Kasb tanlashda ijtimoiy qarashlarning ta'siri", "Ta'lim muhitida teng ishtirok" kabi mavzularda kichik tadqiqotlar o'tkazish orqali nazariya amaliyot bilan bog'lanadi. Yoshlar orasida gender tenglik madaniyatini shakllantirish uchun pedagog quyidagi amaliy tamoyillarga amal qilishi mumkin:

1. barcha talabaga murojaat qilish va savol berishda teng imkoniyat yaratish;
2. guruh rahbarligi va taqdimot kabi faoliyatlarni faqat bir jins vakillariga bog'lab qo'ymaslik;
3. darslik va misollarda gender stereotiplarini sezish va muhokama qilish;
4. kamsituvchi iboralarga pedagogik jihatdan to'g'ri munosabat bildirish;
5. talabalarning kasbiy qiziqishlarini jinsga bog'lamaslik.

Bundan tashqari, pedagog "tenglik" va "bir xillik" tushunchalarini farqlashni o'rgatishi kerak. Tenglik – barcha insonlarning huquq va imkoniyatlarini hurmat qilish bo'lsa, bir xillik barcha insonlardan aynan bir xil bo'lishni talab qilish degani

emas. Har bir yoshning qobiliyati, qiziqishi va ehtiyoji turlicha bo'lishi mumkin. Pedagogik yondashuvning vazifasi ana shu individual farqlarni hurmat qilgan holda adolatli imkoniyat yaratishdir. Tahlil shuni ko'rsatadiki, gender tenglik madaniyatini shakllantirishning asosiy vositasi – yoshlarni faqat ma'lumot bilan ta'minlash emas, balki ularning kundalik munosabatlari va qaror qabul qilish uslubini o'zgartirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy muhit yaratishdir. Ta'lim jarayonida teng ishtirok, hurmatli muloqot, tanqidiy fikrlash va hamkorlik muntazam qo'llansa, genderga oid stereotiplarni anglash va qayta ko'rib chiqish imkoniyati ortadi. Gender tenglikni ta'limga integratsiya qilishda uchta darajani hisobga olish mumkin: shaxsiy daraja, ta'lim muassasasi darajasi va tizim darajasi. Shaxsiy darajada yoshning bilim, munosabat va xulqi o'zgaradi. Muassasa darajasida dars, tarbiya, ichki qoidalar va muloqot madaniyati tenglik tamoyillariga moslashadi. Tizim darajasida esa o'qituvchi tayyorlash, o'quv dasturlari, darsliklar va baholash mexanizmlari qayta ko'rib chiqiladi. UNESCO ham gender tenglikka erishishda ma'lumotlar, siyosiy-huquqiy asoslar hamda o'qitish va o'rganish amaliyotini bir-biri bilan bog'liq holda rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida gender tenglik madaniyatini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayon yoshlarning huquqiy va ijtimoiy bilimlarini oshirish, stereotipik qarashlarni tanqidiy tahlil qilish, o'zaro hurmat va hamkorlikni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Gender tenglik madaniyatini shakllantirishda pedagogning shaxsiy namuna ko'rsatishi, ta'lim mazmunining xolisligi, interfaol metodlardan foydalanish, xavfsiz psixologik muhit yaratish va oila bilan hamkorlik qilish muhim pedagogik shartlar hisoblanadi. O'zbekiston pedagogik ta'limida gender masalalariga oid kompetensiyalarni kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi esa bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy talablar asosida tayyorlanishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, gender tenglik yoshlar ongiga majburan singdiriladigan alohida g'oya emas, balki adolat, inson qadr-qimmati, hurmat va mas'uliyat kabi umumiy tarbiyaviy qadriyatlar orqali shakllantiriladigan madaniyatdir. Ta'lim muassasasida har bir yosh o'zini qadrlangan, tinglangan va rivojlanish uchun teng imkoniyatga ega shaxs sifatida his qilsa, gender tenglik madaniyati amaliy mazmun kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNGEI/UNESCO. A Guide for Gender Equality in Teacher Education Policy and Practices. 2015.

2. O'zbekiston Respublikasi. Gender tenglik va ayollar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
4. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent: O'zbekiston.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.